**TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 25-oktabr | 297-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

## Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi 712-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-oktabrdagi 102-sonli rayosat bayonida berilgan topshiriqlar, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 12-iyundagi VI-93-65-10-0-K/24-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi 712-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 10, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi “Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-oktabrdagi 102-sonli rayosat bayoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 712-10-0-Q/24-sonli qaroriijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududida ushbu qaror bilan 2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishi taklif etilayotgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash bo‘yicha loyihalarning (obyektlarning) dastlabki manzilli ro‘yxati;

- umumta’lim maktablari 1-ilovaga;
- ijod va ixtisoslashtirilgan maktablari 2-ilovaga;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari 3-ilovaga;
- sog‘liqni saqlash muassasalari 4-ilovaga;
- sportni rivojlantirish muassasalari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mirsagatov), 3 kun muddatda dasturga kiritilishi belgilanga yangidan quriladigan obyektlarga hududlarni tasdiqlangan bosh rejalaridan kelib chiqib yer maydonlarini ajratish bo‘yicha belgilangan tartibda hujjatlarini viloyat hokimligiga (xat, xarita va dalolatnoma) taqdim etsin.

4. Buyurtmachilarga belgilangan tartibda:

- Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasiga arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berish hamda loyihasmeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan shartnoma tuzish;

- loyiha ishlarini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan korxonalar bilan yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish;

- qurilish ishlarini amalga oshirish uchun tegishli nazorat inspeksiyasidan ruxsatnoma olish;

- mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki ularning muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirish hamda qurilish-ta’mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng foydalanishga topshirish vazifalari yuklatilganligi ma’olumot uchun qabul qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
297-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

# 2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishi taklif etilayotgan umumta’lim maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash bo‘yicha yangidan boshlanuvchi loyihalarning (obyektlarning) DASTLABKI MANZILLI RO‘YXATI

| № | Ob’ekt nomi | Loyiha quvati | | Shu jumladan | | | Ob’ekt-ning dastlab-ki qiymati, mln.so‘m |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘lchov birli-gi | miqdori | Yangi qurilish | Rekon-struk-siya | Mukam-mal ta’mir | |
| 1 | "Iftixor" MFY 11-son maktabni mukammal ta’mirlash | O‘quv o‘rni | 680 | | | 680 | 6 800,0 |

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
297-10-212-Q/24-son qaroriga
2-ilova

# 2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishi taklif etilayotgan ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash bo‘yicha yangidan boshlanuvchi loyihalarning (obyektlarning) DASTLABKI MANZILLI RO‘YXATI

| № | Ob’ekt nomi | Loyiha quvati | | Shu jumladan | | | Ob’ekt-ning dastlab-ki qiymati, mln.so‘m |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘lchov birli-gi | miqdori | Yangi qurilish | Rekon-struk-siya | Mukam-mal ta’mir | |
| 1 | yangi ixtisoslashtirilgan maktabini qurish va jihozlash | O‘quv o‘rni | 336 | 336 | | | 24 000,0 |

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
297-10-212-Q/24-son qaroriga
3-ilova

# 2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishi taklif etilayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha yangidan boshlanuvchi loyihalarning (obyektlarning) DASTLABKI MANZILLI RO‘YXATI

| № | Ob’ekt nomi | Loyiha quvati | | Shu jumladan | | | Ob’ekt-ning dastlab-ki qiymati, mln.so‘m |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘lchov birli-gi | miqdori | Yangi qurilish | Rekon-struk-siya | Mukam-mal ta’mir | |
| 1 | "Ayraota" MFYdagi 30-sonli MTTni ekonstruksiya qilish | o‘rin | 150 | | 150 | | 3 900,0 |

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
297-10-212-Q/24-son qaroriga
4-ilova

# 2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishi taklif etilayotgan sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash bo‘yicha yangidan boshlanuvchi loyihalarning (obyektlarning) DASTLABKI MANZILLI RO‘YXATI

| № | Ob’ekt nomi | Loyiha quvati | | Shu jumladan | | | Ob’ekt-ning dastlab-ki qiymati, mln.so‘m |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘lchov birli-gi | miqdori | Yangi qurilish | Rekon-struk-siya | Mukam-mal ta’mir | |
| 1 | "Qorabo‘rik" MFYdagi A.Umarov oilaviy shifokorlik punkti binosini mukammal ta’mirlash | qatnov | 50 | | | 50 | 1 400,0 |

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
297-10-212-Q/24-son qaroriga
5-ilova

# 2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishi taklif etilayotgan sportni rivojlantirish muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash bo‘yicha yangidan boshlanuvchi loyihalarning (obyektlarning) DASTLABKI MANZILLI RO‘YXATI

| № | Ob’ekt nomi | Loyiha quvati | | Shu jumladan | | | Ob’ekt-ning dastlab-ki qiymati, mln.so‘m |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘lchov birli-gi | miqdori | Yangi qurilish | Rekon-struk-siya | Mukam-mal ta’mir | |
| 1 | Keles shahri Iftixor MFY hududidagi sport maktabiga qarashli o‘yingohni rekonstruksiya qilish | ob’ekt | 1 | | 1 | | 10 000,0 |